

**ATROF-TABIIY MUHITGA
EHTIYOTKORONA MUNOSABAT–INSONIYLIK BURCHIMIZDIR**

Hasanboyev To'raqul Foziljon o'g'li

Jizzax davlat pedagogika universiteti

Tarix fakulteti o'qituvchisi

Mahkamov Sardor Ne'mat o'g'li

Samarqand davlat universiteti

Yuridik fakulteti talabasi

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada atrof-muhitni yomonlashuviga olib keluvchi omillar, uning kelib chiqish sabablari, atrof-muhitni muhofaza etish bo'yicha dunyo davlatlari va mamlakatimizda olib borilgan va borilayotgan rejaviy ishlar haqida ma'lumotlar keltirilgan.*

***Kalit so'zlar:** Tabiat, ekologiya, atmosfera, tabiiy resurslar, ozon qatlami, UNEP, Ibn Sino, toza havo, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, PF-5863 sonli farmon, Jinoyat kodeksi.*

Insoniyat tarixida texnikaning taraqqiy etishi, turli xildagi ixtirolar, sanoatning rivojlanishi insonlar hayoti va mamlakat taraqqiyotida muhim o'rin egalladi. Insoniyat tarixidagi texnikaning taraqqiy etishi insoniyat uchun foydali bo'lishibilan bir qatorda zararli tomonlari ham mavjud. Ushbu ixtirolar insoniyat va tabiat o'rtasidagi muvozanatga putur yetkazdi, ko'plab tabiiy resurslar sarflandi, ko'plab o'rmonlar yo'q qilib yuborildi, atmosfera ifloslandi, hatto Orol dengizi qurib boshladi.

Zavodlardan chiqadigan va avtomobillardan chiqadigan zaharli gazlar odamlarni umrini qisqartiradi, tezda keksayib yuziga ajin tushushiga va ko'plab kasalliklarni keltirib chiqarishga sabab bo'ladi va eng muhimi bizni ko'plab kasalliklardan ximoya qiluvchi ozon qatlamini yemirilishga olib keladi.

Abu Ali ibn Sino "Agar havoda chang va tutun bo'lmasa edi, kishi ming yil

yashagan bo'lardi" deb bejiz aytmagan edi[www.Hikmatlar.uz internet sayti]. Xalqimizda bu haqda yana bir gap bor "Toza havo-tanga davo". Ammo, bugungi kunda tabiat borgan sari nozik bo'lib bormoqda, biz buni haroratning haddan ziyod isib borishi ko'plab muzliklarning erishi, cho'llanish darajasining ortishi, suv tanqisligida ko'rishimiz mumkin. Buning oldini olish maqsadida Birlashgan Millatlar Tashkilotining Atrof-muhit bo'yicha dasturi (UNEP-inglizcha; United Nations Environment Programme) ishlab chiqilgan. Dasturning shiori esa "Atrof-muhit taraqqiyot manfaati uchun" deb nomlangan[www.Wikipedia.uz internet sayti].

Aytish lozimki bu borada milliy qonunchiligimizda ham atrof-muhitni asrab avaylash unga ehtiyotkorona munosabatda bo'lish belgilangan. Xususan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining XI bobi Fuqarolarning burchlari deb nomlanib uning 62-moddasi atrof-muhitni himoya qilish haqida va unda quyidagicha aytilgan "Fuqarolar atrof tabiiy muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo'lishga majburdirlar"[O'z. Res. Konstitutsiyasi. 2023.17 b.].

Ushbu konstitutsion normadan kelib chiqib, "Ekologik nazorat to'g'risida", "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida", "Atmosfera havosini muhofaza qilish to'g'risida", "Chiqindilar to'g'risida", "Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar to'g'risida" qonunlarning qabul qilinganligi ham atrof muhitni asrab avaylashda muhim huquqiy asos bo'lmoqda.[www.Uznature.uz internet sayti]. Jumladan, 1992-yil 9-dekabrda 754-XII-son Tabiatni muhofaza qilish to'g'risidagi qonunning V bobi "Tabiiy resurslardan foydalanishni tartibga solish" deb nomlanib uning 16-moddasi "Tabiiy resurslardan foydalanish shartlari", 18-modda "Yer osti boyliklari va foydali qazilmalardan foydalanish shartlari", 19-modda "Suvlar va suv havzalaridan foydalanish shartlari", 20-modda "Atmosfera havosidan foydalanish shartlari", deb nomlangan muhim normalari qayd etilgan[www.Lex.uz. internet sayti].

Bugungi kundagi eng aktual muammolardan bo'lgan suv 19-moddada quyidagicha tartibga solingan: O'zbekiston Respublikasi hududidagi yer usti, yer osti va dengiz suvlaridan zarur miqdordagi suvning tabiiy aylanishini saqlash, uning

normativda ko'rsatilgan darajada tozaligini ta'minlash, suv o'simliklari va hayvonlarini asrash, suv havzalarining ifloslanishiga yo'l qo'ymaslik, ularda ekologiya muvozanatini saqlash va suv havzasiga landshaft elementi sifatida ziyon yetkazmaslik sharti bilan yo'l qo'yiladi.

Mahalliy hokimiyat idoralari, o'rmon va suv xo'jaligi idoralari daryo irmoqlari hosil bo'ladigan joylarda, suv havzalari sohili mintaqalarida daraxtzorlarni tiklashlari va dov-daraxtni ko'paytirishlari hamda ularning saqlanishini ta'minlashlari shart. Ushbu 19-moddaning 2-qismida ko'rsatilgan normalarga asoslangan holda Orol dengizi va boshqa suv kamayib borayotgan suv havzalari va ularning atroflarida uncha ko'p suv talab qilmaydigan mevali va manzarali daraxtlarni ekish va ko'paytirish, bundan tashqari turli xil manzarali o'simliklar ekib shu yerlardan landshaft so'lim maskanlarini bunyod etish va bunyod etish orqali ekologiyani zaharli havolardan himoya qilish va ushbu joylarga o'zimizning fuqarolarimiz va turistlarni jalb qilish, hatto ushbu joylardan foyda olish va olingan foydani suv havzalarini yaxshilash uchun sarflash mumkin, desak maqsadga muvofiq bo'ladi [www.Lex.uz. internet sayti].

Ekologiya sohasida muhtaram Prezidentimizning olib borayotgan ishlari ham beqiyos. Jumladan Prezidentimizning 2019-yil 30-oktabrdagi PF-5863 sonli farmoniga muvofiq "2030-yilgacha bo'lgan davrda O'zbekiston Respublikasining Atrof-muhitni muhofaza qilish Konsepsiyasi" ishlab chiqildi. Ushbu konsepsiyada O'zbekistonda ekologik holatini yaxshilash borasida turli maqsad va vazifalar belgilab berilgan.

Quyidagilar konsepsiyaning maqsadlari:

-O'zbekiston Respublikasi aholisining hayoti va salomatlik darajasini yaxshilashning zarur sharti sifatida atrof muhitning qulay holatini ta'minlash ;

-atrof muhitga va aholining salomatligiga salbiy ta'sirni pasaytiruvchi innovatsion texnologiyalarni joriy etish hisobiga barqaror iqtisodiy rivojlanish;

-atrof muhit obyektlaridan oqilona foydalanishni va biologik resurslar qayta tiklanishini ta'minlash.

Konsepsiyaning vazifalari esa quyidagilardir:

-atrof muhit obyektlarini (yer, suv, atmosfera havosi, yer qa'ri, o'simlik va hayvonot dunyosi) saqlash va qo'riqlanishini ta'minlash;

-qo'riqlanadigan tabiiy hududlarni kengaytirish;

-atrof muhitni muhofaza qilish va tabiatdan oqilona foydalanish sohasida davlat nazoratini, shuningdek, atrof muhitning ekologik monitoringi tizimini takomillashtirish;

-atrof muhitni muhofaza qilishni ilmiy jihatdan ta'minlash;

-atrof muhitni muhofaza qilish sohasida xalqaro hamkorlikni kengaytirish va boshqalar[www.Lex.uz. internet sayti].

Bundan tashqari O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksida to'rtinchi bo'lim "Ekologiya sohasidagi jinoyatlar deya nomlanib unga alohida bob ya'ni XIV bob Atrof muhitni muhofaza qilish va tabiatdan foydalanish sohasidagi jinoyatlar ajratilgan".

Jinoyat kodeksining 193-204-moddalari ekologiya ifloslanishini oldini olish atrof-muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo'lishga qaratilgan. Shuningdek, ushbu kodeksning 196-moddasida quyidagicha yozilgan: Yerni ifloslantirish yoki buzish, suv yoki atmosfera havosini ifloslantirish odamlarning ommaviy ravishda kasallanishi, hayvonlar, parrandalar yoki baliqlarning qirilib ketishi yoki boshqacha og'ir oqibatlariga sabab bo'lsa, bazaviy hisoblash miqdorining yuz baravaridan ikki yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki besh yilgacha muayyan huquqdan mahrum qilish yoxud uch yuz oltmish soatgacha majburiy jamoat ishlari yoki uch yilgacha axloq tuzatish ishlari bilan jazolanadi.

O'sha qilmishlar odam o'lishiga sabab bo'lsa, Muayyan huquqdan mahrum qilib, bir yildan uch yilgacha ozodlikni cheklash yoki uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi, deb takidlangan [O'z. Res. Jinoyat kodeksi. 2017.]

Shuni takidlash joizki, atrof-muhitni muhofaza etish uchun birinchi navbatda;

Aholiga atrof-muhit , atrof-muhitni yomonlashuviga sabab bo'ladigan omillar, kelib

chiqish sabablari va ularni oldini olish bo'yicha turli xil targ'ibot va tashviqot, shuningdek, ma'lumotlar berish, tushuntirish ishlarini olib borish , ularning atrof-

muhitga bo'lgan etikasini oshirish muhim ishlardan biri hisoblanadi. Bundan tashqari atrof-muhitga tashlanadigan har bir chiqindi uchun jarima qo'llash va axlat qutularini ko'paytirish va odamlar gavjum joylarga, shuningdek avtomobil serqatnov bo'lgan yo'llarga ularni o'rnatish. Qolaversa, chiqindilardan homashyo va buyumlar tayyorlash atrof-muhitni ifloslanishini oldini olishga katta yordam beradi.

Atrof-muhitni ifloslanishini oldini olishda yana bir muhim omil bu avtomobillarni elektra avtomobillarga aylantirish yoki almashtirish va bu turdagi avtomobillarni ko'paytirish va ishlab chiqarishni tashkil qilish.

Shuningdek, zavod, korxonalar va shu kabi ishlab chiqaruvchi muassalar atrofiga ko'plab ekologiyani tozalovchi va yaxshilovchi daraxt va o'simliklar ekish va ularni ko'paytirish bizning ekologiyamizga juda katta ijobiy natijalar olib keladi.

Xulosa qilib aytish mumkinki atrof-muhitni himoya qilish har birimizning insoniylik burchimizdir. Har bir odam atrof-muhitni asrab avaylab tabiiy resurslardan tejamkorlik bilan oqilona foydalanib unga ehtiyotkorana munosabatda bo'lsa, ishlab chiqilgan qonun-qoidalarga rioya qilsa, aminmanki ona tabiat bizdan marhamatini ayamaydi va o'z muruvvatini namoyon etadi. Yuqoridagilarga asoslanib ta'kidlash mumkinki, biz odamlar birlashib hamjihatlik bilan bir-birimizni qo'llab quvvatlasak, bir-birimizni muammolarimizni hal etishga yordam bersak va tabiatga keltiradigan zararli ishlarni to'xtatsak atrof-muhit oldingi davrlardagidek sof va musaffo bo'ladi, shuningdek hamma joy yashil rangga burkanadi yoxud Orol dengizi ham qurib borishdan to'xtaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Toshkent. 2023.
2. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi. Toshkent. 2017.
3. www.Wikipedia.uz. internet sayti
4. www.Hikmatlar.uz. internet sayti
5. www.Uznature.uz. internet sayti
6. www.Lex.uz. internet sayti